



## LOYIHA JAMOASINI TUZISH VA UNI SAMARALI BOSHQARISH BANK MOLIYA AKADEMIYASI

### Ro'ziyeva Maqsuda Shukurboyevna

Loyihani muvaffaqiyatli boshlash uchun puxta tayyorgarlik ko'rish va aniq rejaga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bunda, boshqaruv yondashuvidan qat'iy nazar, loyihaning nizomini (project charter) ishlab chiqish birinchi qadam hisoblanadi. Loyiha nizomi loyihaning asosiy tafsilotlarini o'z ichiga olgan hujjat bo'lib, u loyihaning maqsadlari, qamrovi, kutilgan natijalari, zarur resurslar, loyiha jamoasi va vaqt chegaralarini aniq belgilab beradi.

Loyiha nizomi loyihaning "tug'ilganlik guvohnomasi" sifatida qaraladi, chunki u loyiha menejeriga tashkilot resurslaridan foydalanish uchun rasmiy ruxsat beradi. Nizom odatda Microsoft Office (PowerPoint, Excel yoki Word) dasturlarida tayyorlanadi va loyiha davomida homiy roziligiga asosan yangilanib boradi.

Samarali loyiha nizomida quyidagi asosiy elementlar aks ettirilishi lozim:

- loyihaning asoslari va ehtiyojlari bayonoti: Loyihaning nima uchun zarurligini va qanday muammolarni hal qilishini tushuntirib beradi.
- loyihaning maqsadlari: Loyiha orqali erishilishi kutilayotgan aniq va o'lchovli maqsadlarni belgilaydi.
- loyihaning chegaralari: Loyiha qamroviga nimalar kirishi va nimalar kirmasligini aniqlaydi.
- asoslangan biznes keys: Loyihaning moliyaviy jihatlarini, jumladan, xarajatlar, kutilayotgan foyda va natijalarni hamda ularning kelib chiqish hisob-kitoblarini o'z ichiga oladi.
- samaradorlik metrikalari: Loyihaning muvaffaqiyatini o'lchash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni belgilaydi.
- loyihaning taxminiy byudjeti: Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar miqdorini aniqlaydi.
- vaqt rejalari: Loyiha bosqichlari bo'yicha belgilangan muddatlarni ko'rsatadi.
- loyiha ishtirokchilari: Mijozlar, homiylar, loyiha jamoasi va manfaatdor tomonlar haqida ma'lumot beradi.
- kutilayotgan natijalar: Loyiha yakunida erishilishi rejalashtirilgan asosiy natijalarni sanab o'tadi.
- asosiy risklar: Loyiha boshida aniqlangan potensial xavf-xatarlar va ularni boshqarish strategiyalarini ko'rsatadi.
- loyiha muddati: Loyihaning boshlanish va tugash sanalarini belgilaydi.
- loyiha yondashuvi: Loyihani amalga oshirish uchun qaysi metodologiya (masalan, an'anaviy, agile yoki gibridd) qo'llanilishini aniqlaydi.



Puxta ishlab chiqilgan loyiha nizomi loyiha jamoasi, manfaatdor tomonlar va homiyalar o'rtasida umumiy tushunishni shakllantiradi hamda loyihani muvaffaqiyatli boshqarish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuningdek, loyiha nizomi loyiha davomida qaror qabul qilish va o'zgarishlarni boshqarish uchun mo'ljal vazifasini o'taydi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida loyihani ishga tushirish ishlariga texnologiyalarni individual sinovdan o'tkazish va kompleks tekshirishga tayyorlash hamda ularni amalga oshirish jarayonida bajariladigan chora-tadbirlarni keltirish mumkin. Bunda texnologiya sifatida barcha texnologik tizim, ya'ni: loyihada ko'zda tutilgan mahsulotning birinchi partiyasini ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishni ta'minlovchi texnologiyalarning barcha turlari kompleksi, truba o'tkazgichlari, bino-inshootlar va qurilmalar ko'zda tutiladi. Individual sinov davri o'z ichiga kompleks sinovdan o'tkazish uchun ishchi komissiyasi tomonidan qabul qilib olishga mashina, qurilma, agregat va inshootlarning alohida qismlarini tayyorlash maqsadida montaj va ishga tushirish ishlarini olib borishni qamrab oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5544-son Farmoni.
2. Project management body of knowledge PMBOK® (guide) Sixth Edition| Newtown Square PA: Project Management Institute. 2017
3. Управление проектом. Основы проектного управления: учебник / под ред. проф. Л. М. Пазу. М.: КНОРУС, 2006
4. Романова М. В. Управление проектами. М.: ИД «ФОРУМ»; ИНФРА-М, 2007

### **FOYDALANILGAN SAYTLAR:**

1. <https://makhmudov.net/loyiha-tuzish-va-uning-boshqaruv-jarayoni-bosqichlari/>
2. <https://uz.itpedia.nl/2016/11/17/sisp-1-2-het-projectplan/>